

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11190540>

UDK 615.89

## DORIVOR O‘SIMLIK XOM ASHYOLARINING SUV SHIMISH KOEFFITSIYENTI

**Mamadaliyev Doniyor Shojalil o‘g‘li**

Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

[doniyormamadaliyev99@gmail.com](mailto:doniyormamadaliyev99@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolamda dorivor o‘simliklar xom ashyolarining suv shimish koeffitsiyenti haqida yoritilgan bo‘lib, har bitta dorivor o‘simlik xomashyosi qancha suv shimishi haqida ko‘rsatilgan. Bu suv shimish koeffitsiyenti dorivor o‘simlik xom ashyolaridan damlama va qaynatmalar tayyorlash uchun zarur. Shu tayyorlagan jadvalim orqali damlama va qaynatmalar tayyorlashi, ularni inson salomatligini saqlashdagi o‘rni, ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Suv shimish koeffitsiyenti, infurdirka stakani DF, dorivor o‘simlik xomashyo turlari.

**Аннотация:** В данной статье объяснен коэффициент водопоглощения сырья лекарственных растений и показано, какое водопоглощение имеет каждое лекарственное растительное сырье. Такой коэффициент водопоглощения необходим для приготовления настоек и отваров из лекарственного растительного сырья. Подготовленная мной таблица расскажет о приготовлении настоек и отваров, их роли и значении в поддержании здоровья человека.

**Ключевые слова:** Коэффициент водопоглощения, заварочное стекло, ДФ, виды лекарственного растительного сырья.


**Abstract:** In this article, the water absorption coefficient of raw materials of medicinal plants is explained, and it is shown how much water absorption each medicinal plant raw material has. This water absorption coefficient is necessary for preparation of tinctures and decoctions from medicinal plant raw materials. The table I have prepared will talk about the preparation of tinctures and decoctions, their role and importance in maintaining human health.

**Key words:** water absorption coefficient, infuser glass, DF, types of medicinal plant raw materials.

## ASOSIY QISM:

Suv shimish koeffitsiyenti- Xom ashyodan damlama yoki qaynatma tayyorlash uchun kerak bo‘lgan suvning miqdori turlicha olinishi mumkin. Masalan: Rp.: Infusi rhizomatis cum radicibus Valerianae 6,0—120,0 D.S. 1 osh qoshiqdan 3 marta ichilsin. Xom ashyodan dorixatda ko‘rsatilgan miqdordagicha suv solib, ajratma olinib, berilgan hajmgacha suv bilan etkaziladi. Bunda yana suv qo‘shishimizning sababi shuki, suvning bir qismi xom ashyoda ushlanib qoladi. Lekin suv qo‘shish bilan biz olingan ajratmani suyultirgan bo‘lamiz. Shuning uchun ana shu xom ashyoda ushlanib qoladigan suvni ham oldindan hisoblab tavsiya qilinadi. Suvning qo‘shimcha miqdori damlama va qaynatmalar tarkibidagi ta‘sir etuvchi modda miqdorini ancha ko‘paytiradi [2]. Tutib qilinadigan suv miqdori o‘sha xom ashyoning morfologik va anatomik xususiyatlariga va xom ashyoning maydalik darajasiga bog‘liq. XI DF da turli o‘simliklar xom ashyosi uchun suv shimish koeffitsienti keltirilgan. Agar o‘simliklar xom ashyosi uchun suv shimish koeffitsienti berilmagan bo‘lsa, u holda barg, gul o‘tlar uchun — 2,0, po‘stlok, ildiz, poya uchun — 1,5 va meva urug‘lar uchun — 0,5 deb olinadi [1].

1gram standart maydalikdagi dorivor o‘simlik xom ashysini infundirka stakanida siqb olingandan keyin ushlanib qolgan suvning miqdori suv shimish koeffitsiyenti deyiladi.



**AN-3000 infundir apparat.**

Apparat silindrik korpusdan (1) iborat. Bu korpus suv hammomi sifatida ishlatalib uning suv hajmini nazorat qiladigan oyna (9) va elektr qizdirgichi bor. Bu korpus metall kobik (2) bilan qoplangan, unga boshqaruv panel (4) joylashtirilgan. Panelda quvvatni o‘zgartirgich (5) signal lampa. (6) va extiyot saqlaydigan asbob (predoxranitel) (7) joylashgan. Ishlatilmaganda suv hammomining kamforqasi qopqog‘i bilan yopiladi, ish vaqtida infundir idishi (8) joylanadi. Uning ichida esa teshikli savatchasi, xom ashyni siqadigan qurilmasi, stakani bor. Teshikli stakanga xom ashyo solinadi. Infundir idishiga esa suv hajmini aniqlovchi oyna belgisigacha suv solinadi. Kamforani qopqoq bilan yopib, apparat ulanadi. Bunda quvvat o‘zgargich —3|| holatga qo‘yiladi. Bunda quvvat maksimal, ya‘ni 1200 Vt bo‘ladi. Suv hammomidagi suv qaynatgandan (taxminan 30 minutdan keyin) uning kamforasiga to‘ldirilgan infundir idish o‘rnataladi, yana qayta qaynatgandan keyin apparat quvvatini —2|| yoki —1|| holatga o‘tkaziladi (300 yoki 600 Vt), bu suvning bir tekis qaynashi uchun yetarli, belgilangan vaqtdan keyin apparat o‘chiriladi. Infundir idishni suv hammomining kamforasidan olib xona haroratigacha sovitgandan keyin xom ashyodan ajratma qoldig‘i siqib olinadi. Bu apparatda 2 ta infundir idish bo‘lib, birinchisida ajratmani sovitilayotganda, 2-da (b) boshqa ajratmani tayyorlash mumkin. Bu esa ishda ancha qulaylik tugdiradi. Apparatning hamma qismlari (ya‘ni ajratma tegib turadigan) indeferent, korroziyaga chidamli materialdan ishlangan.

### **Muhitning (pH sharoitining) ta‘siri**

Bu alkaloid saqlagan xom ashyodan damlama va qaynatmalar olishda katta ahamiyatga ega. Suvni nordonlashtirganda alkaloidlarning qiyin eriydigan birikmalari (qiyin eriydigan organik kislotalar bilan komplekslari) oson eriydigan alkaloid turiga aylanadi. Shunga ko‘ra alkaloid saqlaydigan damlama va qaynatmalarga limon kislotasi, vino kislotasi yoki xlorid kislotasi xom ashydagi alkaloidlar miqdoriga teng miqdorda qo‘shiladi. Faqat shoxkuya uchun xlorid kislota xom ashydagi alkaloidlar miqdoridan 4 marta ko‘p miqdorda qo‘shiladi. DF XI ga asosan alkaloid saqlovchi xom ashylardan suvli ajratmalar, faqat ekstrakt konsentratlardan foydalanib tayyorlanadi [3].

### **Damlama va qaynatmalarini tayyorlashda qo‘llaniladigan apparaturalar.**

Ajratmalarni qaynatish uchun infundir (lat. — Infundal — qaynatish) deb ataladigan yopiq idishlar ishlataladi. Infundir apparat qanday xom ashyodan tayyorlanganligi ham ajratmalarining sifatiga ta‘sir qiladi. Qadimda dorixonalarda sof qalaydan yasalgan infundirlar ishlataligan. Shisha infundirlar kislota saqlaydigan ajratmalarni tayyorlash uchun qo‘llanilgan (masalan: shoxkuya). Keyinchalik qalay infundirkalar ishlatala boshlangan, ular ham tez qiziydi va mustahkam hisoblanadi[3].

## Dorivor o'simlik xom ashyolarinining suv shimish koeffitsiyenti

Nº	Dorivor o'simlik xomashyosi	Suv shimish koeffitsiyenti
1.	Yalpiz bargi	2.4
2.	Sano bargi	1.8
3.	Ayiqquloq	1.4
4.	Mavrak bargi	3.3
5.	Adonis yer ustki qismi	2.8
6.	Dalachoy yer ustki qismi	1.6
7.	Marvaridgul yer ustki qismi	2.5
8	Sushenitsa yer ustki qismi	2.2
9.	Arslonquyruq yer ustki qismi	2.0
10.	Valeriana ildiz va ildizpoyasi	2.9
11.	Chuchukmiya ildiz va ildizpoyasi	1.7-2.0
12.	Ermon po'stlog'i	1.6
13.	Frangula po'stlog'i	3.4
14	Moychechak guli	1.7-2.3
15.	Na'matak mevasi	2.2
16.	Shoxkuya	1.8
17.	Poligala ildizi	2.2
18.	Chayon o'ti bargi	2.0

**Xulosa.** Damlama va qaynatmalar ishlab chiqarishda uzoq vaqt qo'llanib kelgan usul ilmiy asosga ega bo'lmagan edi. Damlama va qaynatmalar tayyorlashda xususiy yondashish, tayyorlash jarayonini ilmiy asoslash USH DF (1946) joriy qilingach boshlandi. Shu asosda bu tayyorlagan jadvalimizdan foydalangan holatda damlama va qaynatmalar tayyorlash mumkin. Bugungi kunga kelib zamonaviy suv shmdirish aparatlari ixtro qilindi va ulardan foydalanib kelinmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR/REFERENCES

1. M. M. Miralimov „Farmasevtik texnologiya asoslari”. Toshkent-2001.
2. Dorivor o’simliklar atlasi Moxigul Jo’raeva Nashr yili: 2019-yil Tili: O’zbek (lot) Betlar: 264 Nashriyot: Noshir ISBN raqami: 978-9943-5483-4-3
3. Fitoterapiya Botanika, Tibbiyat, Darslik Mualliflar: M. Maxsumov Hammallif: X. Aliyev Nashr yili: 2013 Tili: O’zbek (lot) Betlar: 324 v Nashriyot: Fan va texnologiya ISBN raqami: 978-9943-10-972-8
4. Farmakognoziya 1-qism: ISBN: 978-9943-7428-7-1 Mualliflar: Xolmatov H. X. Til: o’zbek Yozuv: lotin Resurs turi: Darslik Betlar soni: 384 bet Nashriyot: EFFECT-D Adadi: Adadi 30 Chop etilgan yili: 2021 Chiqish ma’lumotlari: Toshkent
5. Brokkoli karamining xususiyatlari va o’zbekiston sharoitida yetishtirish texnologiyasi 10.5281/zenodo.10630021
6. <http://www.kompy.info>